



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 80 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari...	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafruz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	



XORIJIY TAJRIBALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TYUTORLAR KASBIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
 Toshkent axborot texnologiyalari universiteti boshqarma boshlig'i
 Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tyutorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish masalalari zamonaviy ta'lim paradigmalari hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston ta'lim tizimlarida tyutorlik faoliyatining tashkiliy-pedagogik asoslari, metodik yondashuvlari hamda rivojlanish mexanizmlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD), raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv ta'lim va individual o'quv trayektoriyalari tyutorlar kasbiy salohiyatini oshirishning muhim omillari sifatida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tyutor, CPD, kasbiy kompetensiya, raqamli ta'lim, individual yondashuv, mentorlik, ta'lim sifati, innovatsiya.

Abstract: This article provides a scientific analysis of improving the professional development system for tutors based on contemporary educational paradigms and advanced international practices. The study comparatively examines the organizational and pedagogical foundations, methodological approaches, and development mechanisms of tutoring in the education systems of the United States, the United Kingdom, Germany, France, Japan, Russia, Kazakhstan, and Uzbekistan. Furthermore, continuous professional development (CPD), digital pedagogy, the competency-based approach, reflective learning, and individualized learning trajectories are substantiated as key factors in enhancing tutors' professional competence and capacity.

Key words: tutor, CPD (Continuing Professional Development), professional competence, digital education, individualized approach, mentoring, quality of education, innovation.

Аннотация: В данной статье на основе современных образовательных парадигм и передового зарубежного опыта проводится научный анализ вопросов совершенствования системы повышения квалификации, направленной на развитие профессионального потенциала тьюторов. В исследовании в сравнительном аспекте рассматриваются организационно-педагогические основы, методические подходы и механизмы развития тьюторской деятельности в системах образования США, Великобритании, Германии, Франции, Японии, России, Казахстана и Узбекистана. Особое внимание уделяется непрерывному профессиональному развитию (CPD), цифровой педагогике, компетентностному подходу, рефлексивному обучению и индивидуальным образовательным траекториям как ключевым факторам повышения профессионального потенциала тьюторов.

Ключевые слова: тьютор, CPD (непрерывное профессиональное развитие), профессиональная компетентность, цифровое образование, индивидуальный подход, наставничество, качество образования, инновации.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi global o'zgarishlar ta'sirida tubdan transformatsiyalashmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim platformalari va ochiq ta'lim resurslari pedagogik jarayonning mazmunini sezilarli darajada o'zgartirdi. Bu o'zgarishlar natijasida tyutorlik instituti ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Tyutor endi faqat bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va individual rivojlanishni ta'minlovchi murakkab pedagogik subyektga aylandi.

Bugungi kunda tyutorlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularning raqamli va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tyutorlik faoliyati va uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari so'nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. Xorijiy adabiyotlarda tyutorning vazifalari, kasbiy kompetensiyalari hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmlariga turli nazariy va amaliy yondashuvlar shakllangan.

J. Salmon (2004) elektron ta'lim muhitida tyutori "e-moderator" sifatida tavsiflab, uning asosiy vazifasi talabalarning raqamli ta'lim jarayoniga moslashuvi, o'quv faoliyatini muvofiqlashtirishi va interaktiv muloqotni tashkil etishdan iborat ekanligini asoslaydi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan besh bosqichli model zamonaviy masofaviy ta'lim tizimlarida tyutorlik faoliyatining nazariy asoslaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

J. Hattie (2009) o'zining keng ko'lami meta-tahlillari asosida ta'lim sifati, avvalo, pedagogning kasbiy mahorati, muntazam refleksiyasi hamda samarali qayta aloqani tashkil etishiga bog'liqligini isbotlaydi. Tadqiqot natijalari tyutorning o'quv jarayonidagi yo'naltiruvchi va motivatsion roli ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ham tyutorlarning kasbiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. OECDning TALIS 2018 tadqiqoti (2019) o'qituvchilar va tyutorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanihi (Continuous Professional Development - CPD) ta'lim sifati hamda o'quvchilar natijalarini yaxshilashning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. UNESCO (2022) esa raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va global ta'lim makoniga integratsiyalashuv tyutorlik faoliyatining yangi rivojlanish bosqichini belgilayotganini qayd etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham tyutorlar malakasini oshirishning samarali mexanizmlarini namoyon etadi. Jumladan, Finlyandiya ta'lim tizimida reflektiv pedagogika, hamkasblar bilan hamkorlikda o'rganish va individual kasbiy rivojlanish rejaları ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Singapurda esa mentorlik instituti, uzluksiz malaka oshirish dasturlari hamda kompetensiyaga asoslangan kasbiy rivojlanish modeli pedagog va tyutorlar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tyutorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish uzluksiz kasbiy rivojlanish, reflektiv amaliyot, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv hamda individual ta'lim trayektoriyalarini uyg'unlashtirish orqali samarali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida tyutorlar malakasini oshirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish va xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar hali ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tyutorlik tizimi turli ta'lim falsafasi, pedagogik model va ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllangan murakkab tizim hisoblanadi. Har bir davlatning yondashuvi o'zining tarixiy rivojlanish bosqichi, iqtisodiy imkoniyatlari va ta'lim siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, tyutorlikning mazmuni ham shu omillar asosida farqlanadi. Shu sababli tyutorlikni yagona model sifatida emas, balki ko'p qirrali pedagogik tizim sifatida o'rganish muhim hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-komparativ tahlil, tizimli yondashuv, kontent tahlili, ilmiy manbalarni umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Turli davlatlar tajribasi tyutorlik faoliyatining tashkiliy-pedagogik asoslari, kasbiy rivojlanish mexanizmlari va malaka oshirish tizimi mezonlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSH ta'lim tizimida tyutorlik, eng avvalo, individualizatsiya va talabaga yo'naltirilgan yondashuv asosida qurilgan. Bu mamlakatda ta'lim jarayoni "student-centered learning" konsepsiyasiga tayanadi. Tyutorlar esa faqat bilim beruvchi emas, balki fasilitator, akademik mentor va psixologik qo'llab-quvvatlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Har bir talaba uchun individual ta'lim trayektoriyasi ishlab chiqilishi, uning akademik rivojlanishi muntazam monitoring qilinishi va raqamli platformalar orqali o'quv jarayoni boshqarilishi AQSH modelining asosiy xususiyatlaridir. Bu tizimning afzalligi shundaki, u talabada mustaqil qaror qabul qilish, o'z-o'zini boshqarish va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantiradi.

Buyuk Britaniya ta'lim tizimida tyutorlik ko'proq reflektiv pedagogika va muammoga asoslangan o'qitish (problem-based learning) bilan uyg'unlashgan. Bu yerda tyutor talabaning bilim olish jarayonida yo'naltiruvchi emas, balki fikrlash jarayonini uyg'otuvchi moderator vazifasini bajaradi. Talabalar mustaqil qaror qabul qilish, muammoni tahlil qilish va yechim ishlab chiqishga yo'naltiriladi. "Solution-based learning" yondashuvi orqali ta'lim real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanadi. Natijada talabalarda akademik erkinlik, analitik fikrlash va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.



Germaniya tajribasi tyutorlikni ilmiy-amaliy integratsiya va dual ta'lim modeli asosida rivojlantirganligi bilan ajralib turadi. Bu tizimda nazariy bilimlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish va amaliy faoliyat uyg'unlashtiriladi. Tyutorlar talabalarni faqat auditoriya sharoitida emas, balki real professional muhitda ham kuzatadi va yo'naltiradi. "Dual system"ning asosiy ustunligi shundaki, u talabaning kasbiy kompetensiyasini bevosita mehnat bozori talablariga moslashtiradi. Shu bilan birga, Germaniyada tyutorlar ilmiy yo'naltiruvchi sifatida tadqiqot faoliyatini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Fransiya ta'lim tizimida tyutorlik ko'p madaniyatli muhit va ijodiy yondashuv asosida shakllangan. Bu mamlakatda ta'lim jarayoni talabalarning erkin fikrlashi, o'z pozitsiyasini bildira olishi va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qaratilgan. Tyutorlar talabalarda innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Fransiya modeli ta'limni nafaqat akademik jarayon, balki ijtimoiy va madaniy integratsiya vositasi sifatida ham ko'radi.

Yaponiya tajribasi esa tyutorlik tizimida intizom, jamoaviylik va qadriyatlarga asoslangan ta'lim modeli bilan ajralib turadi. Bu yerda ta'lim jarayoni qat'iy rejalashtirilgan, izchil va tizimli tashkil etiladi. Tyutorlar talabalarda nafaqat akademik bilim, balki mehnat madaniyati, hurmat, mas'uliyat va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Yapon modelining asosiy afzalligi - ta'lim jarayonining barqarorligi va yuqori darajadagi tartib-intizomdir.

Rossiya ta'lim tizimida tyutorlik ilmiy-tadqiqot faoliyati va raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida rivojlangan. Bu yerda tyutorlar talabalarni ilmiy izlanishlarga yo'naltiradi, ularning akademik yozuv va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Raqamli platformalarning keng qo'llanilishi esa ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Qozog'iston tajribasida tyutorlik tizimi inklyuziv ta'lim va teng imkoniyatlar yaratish tamoyiliga asoslanadi. Bu modelda har bir talaba uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, individual ehtiyojlarni hisobga olish va kommunikativ yondashuvni rivojlantirish asosiy o'rinda turadi. Tyutorlar ijtimoiy integratsiya jarayonida muhim vositachi rolini bajaradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida tyutorlik instituti endi shakllanib borayotgan bo'lib, u asosan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvar yondashuv va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan. Milliy ta'lim tizimida tyutorlar nafaqat akademik yo'naltiruvchi, balki tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisi sifatida ham qaraladi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish jarayoni endigina rivojlanish bosqichida.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tyutorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish tizimi turli mamlakatlarda ta'lim siyosati, institutsional yondashuv va pedagogik an'analar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda tyutorlarning kasbiy rivojlanishi uzluksiz ta'lim tamoyili asosida tashkil etilib, malaka oshirish jarayonlari kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv faoliyat, mentorlik va raqamli pedagogika elementlari bilan integratsiyalashgan.

Xususan, AQSH va Buyuk Britaniya tajribasida tyutorlar faoliyati talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash, shaxsiy rivojlanish trayektoriyalarini loyihalash hamda akademik va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu mamlakatlarda malaka oshirish dasturlari moslashuvchan modul tizimi asosida tashkil etilib, amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Germaniya va Fransiya ta'lim tizimlarida tyutorlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog'langan. Nazariy bilimlar va amaliy faoliyat integratsiyasi tyutorlarning kasbiy refleksiya, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish hamda ta'lim sifati monitoringini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Rossiya va Qozog'iston tajribasida esa tyutorlik faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish, kasbiy standartlar hamda kompetensiyalar modelini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan.

Yaponiya tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, tyutorlar faoliyatining samaradorligi jamoaviy hamkorlik, doimiy o'zaro tajriba almashish (Lesson Study), intizom va kasbiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. Natijada pedagoglarning kasbiy rivojlanishi individual emas, balki ta'lim jamoasi faoliyatining uzviy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida tyutorlik instituti nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, uning tashkiliy va metodik asoslarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari asosida respublika oliy ta'lim muassasalari uchun tyutorlar malakasini oshirishning kompleks modeli taklif etildi. Mazkur model uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD), raqamli pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish, mentorlik instituti, reflektiv amaliyot, individual kasbiy rivojlanish rejaları hamda elektron portfoliolarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tyutorlar faoliyatini baholashda faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy kompetensiyalar, raqamli savodxonlik, kommunikativ ko'nikmalar, akademik maslahat berish sifati va talabalarning ta'lim natijalariga qo'shgan hissasini ham kompleks mezonlar asosida baholash zarurligini ko'rsatdi. Bu esa tyutorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, ta'lim sifati va talabalarning akademik muvaffaqiyatini oshirish uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tyutorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish zamonaviy ta'lim siyosatining strategik va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi global ta'lim makonida tyutorlik faoliyati an'anaviy o'qitish modelidan sezilarli darajada farq qilib, u murakkab pedagogik, psixologik va boshqaruv funksiyalarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali kasbiy faoliyatga aylangan.

Xorijiy tajribalar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Qozog'iston) tahlili natijasida tyutorlik tizimining samaradorligi bir nechta asosiy ilmiy-pedagogik omillarga bog'liqligi aniqlandi. Jumladan, individual yondashuv ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish orqali har bir talabning akademik va shaxsiy rivojlanishini ta'minlashi, raqamli texnologiyalar esa ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va ochiqligini oshirishi, reflektiv pedagogika o'qituvchi va tyutor faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirish imkonini berishi, uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) esa pedagoglarning kompetensiyasini doimiy yangilab boruvchi asosiy mexanizm sifatida xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSH va Buyuk Britaniya tizimlarida tyutorlik ko'proq talabaga yo'naltirilgan va moslashuvchan model asosida rivojlangan bo'lsa, Germaniya va Rossiyada ilmiy-amaliy integratsiya hamda raqamli transformatsiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yaponiya tajribasi esa jamoaviylik, intizom va tizimlilik orqali yuqori samaradorlikka erishilganini ko'rsatadi. Fransiya va Qozog'iston tajribalarida esa inklyuzivlik, madaniy xilma-xillik va teng imkoniyatlar yaratish asosiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston sharoitida esa tyutorlik tizimi endigina rivojlanish bosqichida bo'lib, unda ma'naviy-ma'rifiy yondashuv va tarbiyaviy komponentlar ustuvor o'rin egallaydi.

Ilmiy tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, tyutorlarning kasbiy salohiyatini oshirish faqat qisqa muddatli malaka oshirish kurslari bilan cheklanib qolmasligi kerak, balki u uzluksiz, tizimli va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan CPD modeli orqali amalga oshirilishi lozim. Bunda raqamli platformalar, xalqaro akademik hamkorlik, mentorlik tizimi va amaliy tajriba almashish mexanizmlari muhim o'rin tutadi.

Shu asosda aytish mumkinki, milliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

birinchidan, tyutorlar uchun individual professional rivojlanish trayektoriyalarini joriy etish;

ikkinchidan, raqamli ta'lim texnologiyalarini malaka oshirish jarayoniga chuqur integratsiya qilish;

uchinchidan, mentorlik va coaching tizimini institutsional darajada shakllantirish;

to'rtinchidan, xalqaro tajriba almashinuvi asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish modelini keng joriy etish.

Umuman olganda, tyutorlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish hamda global ta'lim standartlariga moslashish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga va ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salmon, G. E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online. 3rd ed. London: Routledge, 2013.
2. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009.
3. Topping, K. J. The Effectiveness of Peer Tutoring in Further and Higher Education: A Typology and Review of the Literature. Higher Education, 1996. Vol. 32, No. 3. - P. 321-345.
4. Falchikov, N. Improving Assessment through Student Involvement: Practical Solutions for Higher and Further Education Teaching and Learning. London: RoutledgeFalmer, 2005. Asqarov A. D. Masofaviy o'qitish ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta'lim. - 2015. - №10. - 59-65-b.
5. Vitvar O. I. Современное содержание и способы развития педагогического наставничества в системе образования Российской Федерации // Педагогика. Вопросы теории и практики. - Тамбов: Грамота, 2019. - Т.4, №2. - С. 43-51.
6. OECD. Teachers and School Leaders as Lifelong Learners (TALIS 2024 Results). OECD Publishing, 2024. <https://www.oecd.org/education/talis/>
7. Darling-Hammond L. Teacher Education around the World: What Can We Learn from International Practice? European Journal of Education, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.